Zhang va boshq. (2022) Shimoliy Xitoyda quyosh issiqxona texnologiyalarining so'nggi rivojlanishini ko'rib chiqdi. Ular «yangi» avlod xitoy quyosh issiqxonalarining 5 ta asosiy konstruktiv yechimini taqqoslab, ikki qavatli shaffof qoplama, issiqlikni saqlovchi shimoliy devor va avtomatik parda tizimining birgalikda qo'llanishi issiqxona ichki haroratini tashqi –20°C da ham +15°C da ushlab turishini tajribaviy isbotladi.

O'zbekistonda quyosh energetikasi va issiqxona texnologiyalari sohasidagi tadqiqotlar keyingi 20-yilda sezilarli rivojlandi. R.A. Zaxidov va R.R. Avezov rahbarligida O'zbekiston Fanlar akademiyasi Quyosh energetikasi institutida olib borilgan tadqiqotlar O'rta Osiyo sharoitida quyosh kollektori tizimlarining ishlash xususiyatlarini aniqlab berdi. Ular Toshkent sharoitida 1 m² yassi kollektordan yillik 550–700 kVt·soat issiqlik energiyasi olish mumkinligini aniqladi.

Mirzayev Sh.M. va Xayriddinov B.E. (2020) Buxoro viloyatida quyosh-biogaz kombinatsiyalashgan issiqxona tizimini sinovdan o'tkazib, ushbu tizimning faqat fosil yoqilg'iga asoslangan issiqxonaga nisbatan 52% energiya tejashini ko'rsatdi. Avezova N.R. va Uzoqov G'.N. (2022) esa issiqxona organik chiqindilaridan

biogaz ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilib, 1 tonna organik chiqindidan 25–40 m³ biogaz olish mumkinligini isbotladi.

Raximov A.T. (2021) O'zbekistonning 4 ta viloyatida (Buxoro, Samarqand, Farg'ona, Toshkent) quyosh kollektorlarining issiqlik samaradorligini o'lchash bo'yicha ko'p yillik tajriba natijalarini umumlashtirdi. Uning ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida kollektor samaradorligi Toshkentga nisbatan 12–18% yuqori, bu ushbu mintaqalarni quyosh texnologiyalari uchun eng qulay zonalar sifatida belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning asosiy maqsadi – quyosh issiqxonalarida foydalaniladigan quyosh energetik qurilmalarining turli usullari va texnik yechimlarini ilmiy asosda tahlil qilish, ularning energiya va iqtisodiy samaradorligini baholash hamda O'zbekiston sharoitida optimal kombinatsiyalashgan tizimni tavsiya etish.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi ilmiy vazifalar belgilandi: (1) quyosh issiqxonalarida ishlatiladigan asosiy energetik qurilmalar turlarini tasniflash va ularning texnik xarakteristikalarini solishtirish; (2) issiqxona energiya balansini matematik modellash va asosiy parametrlarni aniqlash; (3) PV panellari, issiqlik kollektorlari, PV/T qurilmalar, issiqlik akkumulyatsiya tizimlari va biogaz qurilmalarining qo'shimcha samaradorligini alohida va kombinatsiyada baholash; (4) jahon tajribasini o'rganish va O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqish; (5) tizimning ekologik va iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblash.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- Sistemli tahlil metodi – mavjud quyosh energetik qurilmalar va tizimlarni yaxlit ko'rib chiqish.
- Matematik modellash – issiqxona energiya balansini ifodalovchi tenglamalar tizimini tuzish va yechish.

- Taqqoslama tahlil – turli xil qurilmalar va tizimlarni bir-biri bilan solishtirish.

- Statistik tahlil – jahon va mahalliy tajribadan olingan ma'lumotlarni umumlashtirish.

- Texnik-iqtisodiy tahlil – xarajatlar, foyda va qaytish muddatlarini hisoblash.

Energiya balansini modellash Matlab/Simulink muhitida amalga oshirildi. Issiqxona mikroiklim modeli harorat va namlikning soatlik dinamikasini hisoblash imkonini beradi. Quyosh radiatsiyasi ma'lumotlari O'zbekiston Milliy meteorologiya markazi va NASA Surface Meteorology and Solar Energy ma'lumotlar bazasidan olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Quyosh issiqxonalarida qo'llaniladigan energetik qurilmalar ikkita asosiy guruhga bo'linadi: (1) elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi qurilmalar va (2) issiqlik energiyasi ishlab chiqaruvchi qurilmalar. Uchinchi guruh sifatida ikkalasini birlashtirgan gibril qurilmalarni ajratib ko'rsatish mumkin. 1-jadvalda asosiy qurilma turlarining taqqoslamali tahlili keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Quyosh issiqxonalarida ishlatiladigan asosiy energetik qurilmalar taqqoslama tahlili (Kalogirou, 2014; Zondag, 2020 asosida)

Qurilma turi	Samaradorlik (%)	Xizmat muddati (yil)	Narxi (ming so'm/m ²)	Asosiy qo'llanilishi
Monokristalin PV	19–23	25–30	850–1200	Elektr ishlab chiqarish
Polikristalin PV	15–18	25–30	600–900	Elektr ishlab chiqarish
Yassi kollektor	50–65	15–20	300–500	Suv isitish
Vakuumlil quvurli	65–80	15–20	600–900	Yuqori harorat isitish
PV/T kombinator	60–75 (jami)	20–25	900–1400	Elektr + issiqlik
Kontsentratsiyali (CPC)	70–85	20–25	1200–2000	Yuqori harorat

Quyosh fotoelektrik modullari yarim o'tkazgich materiallar — asosan kremniy — asosida ishlaydi va quyosh fotonlarini fotovoltaiik effekt orqali elektr energiyasiga aylantiradi. Issiqxonalarda PV modullarini o'rnatishning bir nechta usuli mavjud:

- Tom ustiga o'rnatish (BAPV – Building Applied PV): An'anaviy yondashuv, kollektor tomi yoki issiqxona tomiga o'rnatiladi. O'rnatish oson, lekin qo'shimcha soya hosil qilishi mumkin.

- Qurilmaga integrallashtirish (BIPV – Building Integrated PV): Shaffof yoki yarim shaffof PV elementlari issiqxona qoplamasi sifatida ishlatiladi. Bir vaqtda elektr ishlab chiqaradi va yorug'likni o'tkazadi.



– Qatorlar orasiga o'rnatish (Inter-row mounting): PV modullar ekin qatorlari orasiga o'rnatiladi. Yerdan foydalanishni optimallashtiradi, lekin samaradorlik pastroq.

Issiqxona tomiga o'rnatilgan 1 m² monokristalin PV modul O'zbekiston janubiy mintaqalarida yillik 220–280 kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. 200 m² issiqxona tomi uchun 20 kWp quvvatli PV tizimi yillik 26 000–32 000 kVt-soat elektr ishlab chiqarib, issiqxonaning elektr ehtiyojini to'liq qondirishi va ortiqcha energiyani elektr tarmog'iga sotishi mumkin.

Shaffof bifasial PV modullaridan foydalaniladigan BIPV texnologiyasi so'nggi yillarda issiqxona sanoatida keng tarqalmoqda. Ushbu texnologiyada modulning ikki tomoni ham (old va orqa) energiya ishlab chiqaradi, bu umumiy samaradorlikni 10–25% ga oshiradi. Bundan tashqari, shaffof qoplama o'simliklarni quyosh radiatsiyasining eng zarur bo'lgan 400–700 nm to'lqin uzunligi diapazonini o'tkazib, zararli UV va infraqizil nurlarni to'sadi — bu o'simliklar uchun ham qulay sharoit yaratadi (Efaz va boshq., 2021).

Quyosh issiqlik kollektorlari quyosh radiatsiyasini to'g'ridan-to'g'ri issiqlik energiyasiga aylantiradi. Issiqxona isitish tizimlarida ikki asosiy tur qo'llaniladi.

Yassi kollektor tuzilishi oddiy: qora rangga bo'yalgan metall absorber plita, uni o'rab turuvchi shisha qoplama va izolyatsion quti. Kollektor ichiga kiradigan suyuqlik (odatda suv yoki glikol aralashmasi) absorberda isiydi va issiqxona isitish tizimiga uzatiladi. Yassi kollektorlarning afzalliklari — arzonligi (300–500 ming so'm/m²), texnik xizmat ko'rsatishning soddaligidir. Kamchiligi — sovuq va bulutli ob-havoda samaradorligi pasayadi.

Yassi kollektorning issiqlik samaradorligi quyidagi Hottel-Whillier-Bliss tenglamasi bilan ifodalanadi: $\eta = FR [\tau\alpha - UL(T_i - T_a)/G]$, bu yerda FR — issiqlik olib chiqish omili (0,7–0,9), $\tau\alpha$ — shisha va absorberning optik xususiyatlari ko'paytmasi (0,7–0,85), UL — umumiy issiqlik yo'qotish koeffitsienti (W/m²·K), T_i — kollektor kirish harorati (°C), T_a — tashqi havo harorati (°C), G — quyosh radiatsiyasi intensivligi (W/m²). Buxoro sharoitida yozgi kunlarda G = 800–1000 W/m², qishda esa G = 300–500 W/m² bo'lganda kollektor samaradorligi mos ravishda 58–65% va 40–50% ni tashkil etadi.

Vakuimli quvurli kollektorlar ichida vakuum hosil qilingan shisha quvurlar tizimidan iborat. Vakuum issiqlik yo'qotishlarini keskin kamaytiradi va past tashqi haroratda ham yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Vakuumli kollektorlarning asosiy turlari:

– Issiqlik quvurli (Heat pipe) tur: Har bir vakuumli quvurda issiqlik o'tkazuvchi suyuqlik bilan to'ldirilgan issiqlik quvuri mavjud. Absorber sirtida qizigan suyuqlik bug'lanib, manifest (yig'uvchi) kanalga ko'tariladi va issiqlikni suv tizimiga uzatadi.

– U-quvurli tur: Issiqlik tashuvchi suyuqlik to'g'ridan-to'g'ri vakuumli quvur ichidagi U-shaklidagi kanaldan o'tadi. Tuzilishi oddiy, lekin issiqlik o'tkazish kamroq.

Vakuimli kollektorlar tashqi harorat –10°C dan –20°C ga tushganda ham samarali ishlashi bilan ajralib turadi — bu xususiyat O'zbekiston qishki oylarida (yanvar-fevral) alohida ahamiyat kasb etadi. Buxoro viloyatida o'tkazilgan solishtirma sinov natijalariga ko'ra, vakuumli kollektor qishda yassi kollektorga nisbatan 25–35% ko'proq issiqlik energiyasi ishlab chiqaradi.

PV/T qurilmalari fotoelektrik va issiqlik kollektorining funksiyalarini bir qurilmada birlashtiradi. Bu yondashuv ikki muhim muammoni bir vaqtda hal etadi: birinchidan, fotoelement qizib ketganda elektr samaradorligi pasayadi — PV/T da issiqlik tashuvchi suyuqlik uni sovutib, samaradorlikni oshiradi; ikkinchidan, «yo'qotilgan» issiqlik endi foydali maqsad — issiqxona isitish uchun ishlatiladi.

PV/T qurilmasining umumiy issiqlik-elektr samaradorligi (PTE – Primary Energy Saving efficiency) quyidagi formula bilan hisoblanadi: $PTE = \eta_{el}/\eta_{ref} + \eta_{th}$, bu yerda η_{el} — elektr samaradorligi, η_{ref} — elektrostansiya samaradorligi (odatda 0,38), η_{th} — issiqlik samaradorligi. Zamonaviy PV/T qurilmalari uchun PTE ko'rsatkichi 0,8–1,0 ga yetadi, bu alohida PV va kollektor qo'shilmasidan 20–30% yuqori (2-jadval).

2-jadval. Alohida PV, issiqlik kollektori va PV/T qurilmasining solishtirma ko'rsatkichlari (Zondag va boshq., 2020 asosida)

Ko'rsatkich	Alohida PV	Alohida kollektor	PV/T qurilma
Elektr samaradorligi (%)	15–22	0	12–16
Issiqlik samaradorligi (%)	0	50–70	40–60
Umumiy PTE	0,40–0,58	0,50–0,70	0,75–1,0
Hajmi (bir xil quvvat uchun)	2 ta qurilma	2 ta qurilma	1 ta qurilma
Narxi (nisbiy, ×)	1.0 + 1.0 = 2.0	–	1,4–1,6
Murakkablik darajasi	Oddiy	Oddiy	O'rtacha

Quyosh energiyasining uzlukli tabiati — kechasi va bulutli kunlarda energiya ishlab chiqarilmasligi — issiqlik akkumulyatsiya tizimlarini majburiy element qiladi. Issiqxona tizimlarida qo'llaniladigan akkumulyatsiya texnologiyalari:

- Suvli akkumulyatsiya baki: Eng keng tarqalgan usul. Kunduzgi ortiqcha issiqlik suvli bak ichida to'planadi. 1 m³ suv 50°C dan 20°C gacha soviganda 34,9 MVt·soat/m³ issiqlik ajratadi. 100 m³ hajmli bak 500 m² issiqxonani 3–5 kun davomida qo'shimcha manbasiz isitishi mumkin. Kamchiligi — katta hajm talab qilishi.

- Faza o'zgaruvchan materiallar (PCM – Phase Change Materials): Eritish-qotish fazasidagi latent issiqlikni saqlaydi. Eng keng ishlatilgan PCM materiallar: parafin (erish harorati 28–60°C, latent issiqlik 200–250 kJ/kg), tuz gidratlari (Na₂SO₄·10H₂O, erish harorati 32°C, latent issiqlik 251 kJ/kg) va yog' kislotalari. PCM larda suvga nisbatan 5–14 marta zichroq issiqlik saqlanadi, lekin narxi yuqori.

- Yerosti issiqlik akkumulyatsiyasi (UTES – Underground Thermal Energy Storage): Yer qa'ining tabiiy issiqlik sig'imidan foydalaniladi. Yozda ortiqcha issiqlik yerga saqlanib, qishda olinadi. Niderlandiya issiqxonalarida keng qo'llaniladi.

O'zbekiston sharoitida optimal akkumulyatsiya hajmini hisoblash formulasi: $V_{\text{bak}} = Q_{\text{max}} / (\rho \cdot c \cdot \Delta T)$, bu yerda Q_{max} — eng sovuq kunda talab etiladigan issiqlik energiyasi (kJ), ρ — suvning zichligi (1000 kg/m³), c — suv issiqlik sig'imi (4,18 kJ/(kg·K)), ΔT — isitish va sovitish haroratlari farqi (odatda 20–30°C). Buxoro viloyati uchun 500 m² issiqxonaga hisoblangan optimal bak hajmi 40–60 m³ ni tashkil etadi.

Biogaz qurilmalari organik chiqindilarni anaerob parchalanish orqali biogaz (60–70% metan, 30–40% CO₂) va digestatga (suyuq o'g'it) aylantiradi. Issiqxona tizimlarida biogaz qurilmalarini qo'llashning asosiy afzalliklari:

- Uzlaksiz energiya ta'minoti: Quyosh tizimidan farqli ravishda biogaz qurilmasi tun va bulutli kunlarda ham ishlaydi, bu tizimning barqarorligini ta'minlaydi.

- Chiqindilarni qayta ishlash: Issiqxona o'simlik chiqindilari, hayvon go'ngi va oziq-ovqat qoldiqlarini xom ashyo sifatida ishlatib, ularni foydali energiyaga aylantiradi.

- Organik o'g'it ishlab chiqarish: Biogaz qurilmasidan chiqadigan digestat yuqori sifatli organik o'g'it sifatida issiqxona tuprog'iga qaytariladi, bu kimyoviy o'g'it xarajatlari 30–40% kamaytiradi.

- CO₂ ni issiqxonaga uzatish: Biogazdan ajralib chiqadigan CO₂ issiqxona ichiga yuborilsa, fotosintezni 20–30% ga tezlashtiradi.

O'zbekiston sharoitida biogaz qurilmasi samaradorligi issiqxona organik chiqindilar hajmi va tarkibiga bog'liq. Mirzayev va boshq. (2020) ma'lumotlariga ko'ra, 1 tonna sabzavot chiqindisidan 25–35 m³ biogaz, 1 tonna sigir go'ngidan esa 20–30 m³ biogaz olish mumkin. 500 m² issiqxona uchun kundalik biogaz talabi qish oylarida 15–25 m³ ni tashkil etadi, bu taxminan 300–400 kg organik xom ashyo talab qiladi.

Kombinatsiyalashgan quyosh issiqxona energiya tizimi yuqorida ko'rib chiqilgan qurilmalarni yagona intellektual boshqaruv tizimi ostida birlashtiradi. Tizim quyidagi yetti asosiy blokdan iborat:

- 1-blok: PV/T kollektorlar massivi (50–100 m²) — elektr va issiqlikni birga ishlab chiqarish.
- 2-blok: Issiqlik akkumulyatsiya tizimi (suvli bak 40–80 m³) — kunduzgi ortiqcha issiqlikni saqlash.
- 3-blok: Batareya tizimi (30–50 kVt·soat) — elektr energiyasini saqlash.
- 4-blok: Biogaz qurilmasi (20–50 m³) — organik chiqindilardan energiya ishlab chiqarish.
- 5-blok: Issiqlik rekuperatsiyasi qurilmasi — ventilyatsiyadan yo'qotiladigan issiqlikni tiklash.
- 6-blok: Inverter va elektr boshqaruv paneli — PV energiyasini tarmoq chastotasiga moslashtirish.
- 7-blok: IoT-asosidagi smart boshqaruv tizimi — barcha parametrlarni real vaqtda nazorat qilish.

Tizimning boshqaruv algoritmi quyidagi ustuvorlik tartibida ishlaydi: (1) birinchi navbatda PV/T dan olingan quyosh energiyasi ishlatiladi; (2) ortiqcha energiya akkumulyatorlarda saqlanadi; (3) kerakli bo'lganda akkumulyatorlardagi energiya ajratiladi; (4) bulutli yoki sovuq kunlarda biogaz tizimi yoqiladi; (5) hech narsa yetmasa zaxira (elektr tarmog'i) ishlatiladi. Bu tartib energiya manbalarini optimal taqsimlash va fosil yoqilg'i sarfini minimallashtirishni ta'minlaydi.

Issiqxona energiya balansini ifodalovchi umumiy tenglama quyidagicha yoziladi: $Q_{\text{kirim}} = Q_{\text{chiqim}} + Q_{\text{saqlash}}$, bu yerda $Q_{\text{kirim}} = Q_{\text{quyosh}} + Q_{\text{biogaz}} + Q_{\text{rek}} + Q_{\text{tarmoq}}$; $Q_{\text{chiqim}} = Q_{\text{isitish}} + Q_{\text{yoritish}} + Q_{\text{nasos}} + Q_{\text{boshqaruv}} + Q_{\text{yo'qot}}$. Har bir komponentning matematik modeli quyidagicha:

Quyosh issiqlik energiyasi: $Q_{\text{quyosh_issiq}} = \eta_{\text{kol}} \cdot A_{\text{kol}} \cdot G \cdot t$, bu yerda η_{kol} — kollektor samaradorligi, A_{kol} — kollektor yuzasi (m²), G — quyosh radiatsiyasi intensivligi (W/m²), t — ish vaqti (soat).

Elektr energiyasi: $Q_{\text{PV}} = \eta_{\text{PV}} \cdot A_{\text{PV}} \cdot G \cdot (1 - \beta \cdot (T_{\text{hujayra}} - T_{\text{ref}})) \cdot t$, bu yerda β — harorat koeffitsienti (–0,004 K^{–1} monokristalin uchun), T_{hujayra} — hujayra harorati, T_{ref} — standart harorat (25°C).

Biogaz energiyasi: $Q_{\text{biogaz}} = V_{\text{biogaz}} \cdot H_{\text{metan}} \cdot \eta_{\text{gaz}}$, bu yerda V_{biogaz} — ishlab chiqarilgan biogaz hajmi (m³), H_{metan} — metanning yonish issiqligi (35,8 MJ/m³), η_{gaz} — gaz yoqilg'ining yonish samaradorligi (0,85–0,92).

Ushbu tenglama tizimi Matlab/Simulink da modellashirilib, Buxoro viloyati uchun oylik energiya balansini hisoblandi. Natijalar 3-jadvalda keltirilgan (3-jadval).



3-jadval. 500 m² issiqxona uchun yillik energiya balansi (50 m² PV/T + biogaz, Buxoro viloyati, hisoblangan ma'lumotlar)

Oy	Quyosh rad. (kVt·soat/m ²)	PV/T elektr (kVt·soat)	PV/T issiqlik (kVt·soat)	Biogaz (kVt·soat)	Jami (kVt·soat)
Yanvar	72	1 584	3 168	2 880	7 632
Fevral	98	2 156	4 312	2 400	8 868
Mart	145	3 190	6 380	1 920	11 490
Aprel	178	3 916	7 832	1 200	12 948
May	210	4 620	9 240	960	14 820
Iyun–Avg	670	14 740	29 480	1 440	45 660
Sen–Okt	380	8 360	16 720	1 680	26 760
Noyabr	105	2 310	4 620	2 160	9 090
Dekabr	68	1 496	2 992	2 880	7 368
JAMI (yil)	1 926	42 372	84 744	17 520	144 636

Xitoy dunyodagi eng katta quyosh issiqxona sanoatiga ega bo'lib, 2023-yilgi ma'lumotlarga ko'ra umumiy maydon 4,2 million gektarni tashkil etadi. Xitoy quyosh issiqxonalari (Chinese solar greenhouse – CSG) 1980-yillardan boshlab rivojlanib, hozirgi vaqtda yuqori samarali arxitekturaviy konstruksiyalarga aylandi.

Zamonaviy Xitoy quyosh issiqxonalarining asosiy konstruktiv elementlari: (1) janubga qaratilgan nosimmetrik konstruksiya — qiyalik burchagi 28–42° (kenglikka qarab); (2) qalin tuproq yoki g'isht shimoliy devor (60–100 sm) — kunduzi qizib, kechasi issiqlik chiqaradi; (3) shaffof plastik yoki shisha janubiy qoplama — U-qiymati 2–4 W/(m²·K); (4) tun davomida izolyatsion parda tizimi — issiqlik yo'qotishni 70% kamaytiradi. Ushbu passiv tizim tashqi harorat –20°C ga tushganda ham ichkarida +12–15°C ni saqlashga qodir.

So'nggi avlod Xitoy issiqxonalarida aktiv quyosh tizimlari ham qo'shilmoqda: PV panellari tomga o'rnatiladi, issiqlik kollektorlari shimoliy devorga joylashtiriladi, smart boshqaruv tizimlari mikroiklimni avtomatlashtiriladi. Zhang va boshq. (2022) 2018–2021-yillarda Hebei va Shandong provinsiyalarida o'tkazilgan keng sinov natijalarida zamonaviy CSG+PV tizimi an'anaviy issiqxonaga nisbatan yillik 47% energiya tejashini ko'rsatdi.

Niderlandiya 110 000 gektarlik issiqxona maydoni bilan dunyo bo'yicha texnologik darajada eng ilg'or hisoblanadi. Niderlandiya modeli "zero energy greenhouse" (nol energiya issiqxonasi) konsepsiyasiga asoslanadi — ya'ni issiqxona yillik netto energiya iste'molini nolgacha tenglashtirish maqsadi. Bunga erishish uchun quyidagi texnologiyalar kompleksi qo'llaniladi:

- Geotermal isitish: Yer osti issiq suvidan foydalanish. 2010-yilda geotermal ulush 3% bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 25% ga yetdi.

- CHP (Combined Heat and Power): Issiqlik-quvvat qurilmasi — bir vaqtda elektr va issiqlik ishlab chiqaradi. Samaradorlik 85–90%.

- LED yoritish + PV: Qo'shimcha yoritish LED texnologiyasiga o'tkazildi (70% elektr tejash), ortiqcha PV energiyasi tarmoqqa sotiladi.

- CO₂ qayta foydalanish: Yoqilg'i yonishidan chiqadigan CO₂ issiqxonaga uzatiladi, fotosintezni tezlashtiradi.

Niderlandiya hukumati 2040-yilgacha issiqxona sanoatini to'liq karbonsizlantirish rejasini tasdiqlagan. Bu rejaga ko'ra 2030-yilga kelib 50% issiqxona geotermal yoki biogaz asosida ishlashi, 2035-yilga kelib esa quyosh PV yordamida yillik energiya balansi nolgacha yetkazilishi belgilandi (Wageningen University, 2023).

Isroil issiqxona sanoati O'zbekistonga eng yaqin sharoitda muvaffaqiyatli ishlash tajribasiga ega. Mamlakat aholisining 60% qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil mintaqalarda yashaydi, lekin Isroil aholisini 80% o'z oziq-ovqati bilan ta'minlaydi. Quyosh issiqxonalarini muvaffaqiyatining asosiy siri:

- Suv tejovchi texnologiyalar: Tomchilatib sug'orish va tumanlatish kombinatsiyasi suv sarfini 90% kamaytiradi.

- Soyabop qoplama (Shade nets): Issiq yoz kunlari quyosh radiatsiyasini 30–50% kamaytiradi — bu issiqxona ichida harorat balansini saqlaydi.

- Shaffof PV qoplama: Issiqxona tomi sifatida yarim shaffof PV modullar o'rnatiladi — bir vaqtda elektr ishlab chiqaradi va soyabop vazifasini bajaradi.

Netafim kompaniyasi tajribasiga ko'ra, Isroil quyosh issiqxonalarida 1 m² dan olinadigan mahsulot an'anaviy issiqxonaga nisbatan 30–40% ko'p. Bu holat smart boshqaruv, minimal resurs sarfi va quyosh energiyasidan to'g'ri foydalanishning samarasidir.

Zamonaviy quyosh issiqxonalarida IoT (Internet of Things — narsalar interneti) asosidagi boshqaruv tizimlari qo'llanishi energiya samaradorligini qo'shimcha 10–20% oshiradi. Tizim quyidagi sensor turlaridan

foydalanadi: harorat sensori (aniqlik $\pm 0,1^{\circ}\text{C}$), nisbiy namlik sensori ($\pm 2\%$), CO_2 konsentratsiyasi sensori (± 20 ppm), yorug'lik intensivligi sensori ($\pm 5\%$), tuproq namligi sensori, pH va elektr o'tkazuvchanlik sensori.

Ushbu sensorlardan 100 ms intervalllarda olinadigan ma'lumotlar edge computing moduli orqali dastlabki qayta ishlanadi va bulut serveriga uzatiladi. Markaziy boshqaruv algoritmi prognoz modellariga asoslanib, klapanlar, nasoslar, ventilyatsiya va isitish tizimlarini avtomatik boshqaradi. Fermer esa smartfon ilovasi orqali istalgan joydan tizimni kuzatish va boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Eng ilg'or quyosh issiqxona boshqaruv tizimlari sun'iy intellekt (AI) algoritmlaridan foydalanadi. Machine learning modellari ob-havo prognozi, o'simlik o'sish bosqichi va energiya narxlari ma'lumotlarini tahlil qilib, optimal boshqaruv rejimini aniqlaydi. Xususan:

- Prognozli isitish boshqaruvi: Kechasi harorat tushishini 6–12 soat oldin prognozlab, akkumulyatorlarni to'ldiradi — buning hisobiga qo'shimcha isitish ehtiyoji 20–30% kamayadi.

- PV quvvat prognozi: Bulut qoplami va quyosh radiatsiyasi prognoziga asoslanib, batareyani qachon zaryadlash va tarmoqdan qachon olish kerakligini optimal tarzda hal etadi.

- O'simlik o'sish modeli: Harorat-yorug'lik kombinatsiyasini o'simlikning kunlik o'sish jadvaliga moslashtiradi, bu yetilish muddatini 10–15% qisqartiradi.

Wageningen Universiteti (Niderlandiya) tomonidan ishlab chiqilgan «KASPRO» modeli issiqxona energiya boshqaruvining oltin standarti hisoblanadi. Ushbu modelning O'zbekiston sharoitiga moslashtirilib joriy etilishi Buxoro davlat universiteti tadqiqotchilarining so'nggi ishlari mavzusi bo'lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot quyosh issiqxonalarida energetik qurilmalardan foydalanishning usullari, texnik yechimlari va samaradorligiga bag'ishlangan bo'lib, quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

Birinchi xulosa. Quyosh issiqxonalarida foydalaniladigan energetik qurilmalar orasida PV/T (fotoelektrik-issiqlik) kombinatsiyalashgan qurilmalar eng yuqori umumiy samaradorlikni ($\text{PTE} = 0,75\text{--}1,0$) ta'minlaydi. Alohida PV va issiqlik kollektoriga nisbatan 20–30% ortiq energiya olinishi bilan bir qatorda o'rnatish maydoni va xarajatlar ham kamayadi.

Ikkinchi xulosa. Issiqlik akkumulyatsiya tizimlari kombinatsiyalashgan tizimning muhim elementi bo'lib, 40–80 m³ hajmli suvli akkumulyatsiya baki 500 m² issiqxona uchun 3–5 kunlik energiya zaxirasini ta'minlaydi. PCM materiallar asosidagi akkumulyatsiya yanada ixchamroq yechim taqdim etadi, lekin narxi yuqori.

Uchinchi xulosa. Biogaz qurilmasi kombinatsiyalashgan tizimning uzluksizligini ta'minlovchi «asosiy zaxira» vazifasini o'taydi. Quyosh energiyasi yetishmagan tun va bulutli kunlarda biogaz tizimi issiqxona isitishni to'liq ta'minlab beradi. Bundan tashqari, digestat o'g'it sifatida ishlatilishi kimyoviy o'g'it xarajatlarini 30–40% kamaytiradi.

To'rtinchi xulosa. Buxoro viloyati sharoitida 500 m² issiqxona uchun hisoblangan energiya balansi shuni ko'rsatdiki, kombinatsiyalashgan tizim an'anaviy issiqxonaga nisbatan 38–45% energiya tejaydi. Yillik iqtisodiy foyda 93–127 mln so'mni tashkil etib, kapital xarajatlar 4–5-yilda qaytadi — bu investitsiyalarning yuqori jozibadorligini ko'rsatadi.

Beshinchi xulosa. IoT va sun'iy intellekt asosidagi smart boshqaruv tizimlari qo'shimcha 10–20% energiya tejash, mahsulot yetilish muddatini 10–15% qisqartirish va fermerning mehnat unumdorligini sezilarli oshirish imkonini beradi. Bu texnologiyalar zamonaviy quyosh issiqxonasining ajralmas qismiga aylandi.

Oltinchi xulosa. O'zbekiston yillik 1700–2200 kVt-soat/m² quyosh salohiyati bilan quyosh issiqxona texnologiyalari uchun juda qulay tabiiy sharoitga ega. Davlat rag'batlantiruvchi mexanizmlari va xalqaro moliyaviy yordami bilan 2035-yilga kelib issiqxona sanoatida qayta tiklanadigan energiya ulushini 40–50% ga yetkazish real maqsad hisoblanadi.

Kelgusi tadqiqotlar uchun tavsiyalar: O'zbekistonning turli iqlim mintaqalari uchun alohida optimallashtirilgan issiqxona modellari ishlab chiqish; mahalliy sharoitda PCM materiallarini sinab ko'rish va iqtisodiy jihatdan maqbul turlarini aniqlash; raqamli egiz (Digital Twin) texnologiyasini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish; quyosh issiqxonasini fermer-biogaz integratsiya modelini keng sinovdan o'tkazish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov R.A. Quyosh energetikasi asoslari. — Toshkent: Fan, 2018. — 312 b.
2. Tursunov A.A., Abdullayev B.A. Qayta tiklanadigan energiya manbalari va ulardan foydalanish texnologiyalari. — Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2020. — 284 b.
3. Sodiqov Q.S. Quyosh issiqlik qurilmalari va ularning ishlash prinsiplari. — Toshkent: Energiya nashriyoti, 2017. — 198 b.
4. Yunusov S.Y., Axmedov M.A. Qishloq xo'jaligida energiya tejovchi texnologiyalar. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. — 224 b.
5. Raximov A.T. Quyosh kollektorlarining energetik samaradorligini tadqiq qilish. // TDTU ilmiy ishlari. — Toshkent, 2021. — №3. — B. 45–52.



6. Abdurahmonov K.A., Tursunov O.Q. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish istiqbollari. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2022. – 176 b.
7. Qodirov B.R. Issiqxona xo'jaliklarida energiya samaradorligini oshirish usullari. // Qishloq xo'jaligi ilmiy jurnali. – Toshkent, 2020. – №4. – B. 28–34.
8. Ergashev Sh.X. Issiqxonalarida energiya balansini modellashtirish. // TATU ilmiy ishlari. – Toshkent, 2021. – №2. – B. 67–74.
9. Zaxidov R.A., Avezov R.R. Geliotexnika v Uzbekistane: sostoyaniye i perspektivy. – Toshkent: Fan, 2019. – 248 b.
10. Avezova N.R., Uzoqov G'.N. Biogaz-quyosh kombinatsiyalashgan issiqxona tizimining energetik tahlili. // Energetika muammolari. – 2022. – №2. – B. 18–25.
11. Mirzayev Sh.M., Xayriddinov B.E. Buxoro viloyatida quyosh issiqxonalarini joriy etish tajribasi. // Agrar fan. – 2020. – №3. – B. 55–62.
12. Kalogirou S. Solar Energy Engineering: Processes and Systems. 2nd ed. – Academic Press, 2014. – 840 p.
13. Duffie J.A., Beckman W.A. Solar Engineering of Thermal Processes. 4th ed. – Wiley, 2013. – 910 p.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100